

IKKINCHI JAHON URUSHIDA G'ALABA UCHUN KURASHGAN TO'RT JOSUS AYOL TARIXI

Qutbiddinova Nasiba Sayfiddin qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Namangan filiali talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqola insoniyat tarixida ko'plab qurbonlar keltirgan ikkinchi jahon urushi davrida faoliyat yuritgan to'rt josus ayol Jozefina Beyker, Nur Inoyat Xon, Jozefina Gerrero va Agness Meyyer Driskoll larning hayoti va fidoyiligi haqida. Mazkur ayollar o'z aql-zakovati, matonati va fidoyiligi bilan nafaqat front ortida, balki razvedka, radiosignallar uzatish, kodlarni yechish va dushman harakatlarini fosh etish orqali g'alabaga sezilarli darajada hissa qo'shgan. Maqolada ikkinchi jahon urushidagi g'alaba uchun nafaqat erkaklar balki ayollar ham sezilarli darajada hissa qo'shganligini ushbu to'rt ayol misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, ayollar josusligi, razvedka xizmati, Jozefina Beyker, Nur Inoyat Xon, Jozefina Gerrero, Agnes Meyer Driskoll, ayollar jasorati, gender stereotiplari, urush tarixi, maxfiy xizmatlar, front orti kurashi, vatanparvarlik.

Tarixning eng mudhish sahifalaridan biri bo'lgan Ikkinchi jahon urushi yillari o'zining ayanchli voqealari va oqibatlarini bilan insoniyat jamiyati xotirasidan hech qachon o'chmaydigan davrlardan biri ekanligi shubhasizdir. Bu urushning millionlab begunoh insonlar, yoshu-qarining bevaqt o'limiga, cheksiz vayronagarchiliklar va azob-uqubatlarga sabab bo'lganligi ko'plab asarlarda qayd etiladi, va xotiralarda yodga olinadi. Shunga qaramay, vaqt o'tgani sari uning og'riqlaridan xalos bo'lishi qiyinlashib boraveradi. Ikkinchi jahon urush davrida ayol bo'lishiga qaramasdan g'alaba uchun kurashgan kerak bo'lsa yurtining ozodligi va aholining tinchligi uchun o'z jonini qurbon qilishgan. Bunday mardonavor halok bo'lgan ayollar soni juda ham ko'p ammo ular orasidan Jozefina Beyker, Nur Inoyat Xon, Jozefina Gerrero va Agness Meyyer Driskoll kabilar xalq orasida mashhur hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushi davrida mazkur ayollar guruhi butun dunyo bo'ylab razvedka idoralarida ayg'oqchi va tezkor xodimlar sifatida faoliyat yuritib, urushning borishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan mahfiy ma'lumotlarni aniqlash maqsadida o'z hayotlarini xavf ostiga qo'ygan. Ularning faoliyati nihoyatda xavfli bo'lib, ular qiynoqlar, konsentratsion lagerlarda hibsga olish va hatto o'lim kabi haqiqiy hayot tahdidlari mavjud edi. Shunga qaramay, bu ayollar ittifoqchi kuchlar g'alabasini insoniyat uchun yagona to'g'ri yo'l deb hisoblab, o'z fidoyiliklari bilan muhim strategik vazifalarni bajarishga hissa qo'shganlar. Ikkinchi jahon urushi davrida bor kuchini sarflagan eng mashhur

aygʻoqchi ayollardan biri Jozefina Beyker boʻlib ¹ 1930-yillarda Qoʻshma Shtatlarda irqiy boʻlinish avj olar ekan, bu davrda Jozefina Beyker Parijda tomoshabinlar orasida qora tanli mashxur raqqosa va qoʻshiqchi sifatida tanilishga ulgurgan edi . Jozefina Beyker raqqosa boʻlishiga qaramay u urush paytida josuslik bilan shugullangan boʻlib u turli xil konsert bahonasida nemislar haqida maʼlumotlar yigʻib ularni musiqa noʻtalari orasiga yoki surotlar orasiga yashirib agentlarga yetkazsh bilan mashgʻul boʻlgan. Bu maʼlumotlarni Fransiya maxfiy xizmati razvedkachisi kapitan Jak Abtey qayd etgan. Jozefina Beyker Fransiya fuqaroligini olganidan ikki yil oʻtgach urush yaqinlashib qolgan. 1939 yilda Beykerga murojaat qilib, fransuzlar uchun qimmatli boʻlgan maʼlumotlarni toʻplashni soʻradi. Ish qanchalik xavfli boʻlishiga qaramay, u ishni ikkilanmay osonlik bilan qabul qildi. Parij aholisi men uchun hamma narsani bergan. Men ular uchun jonimni berishga tayyorman degan sharaflı soʻzlar bilan u bu topshiriqni qabul qildi. "Beyker Italiya va Fransiya elchixonalaridagi diplomatik kechalarda qatnashib, fransuz xoinlari boʻlishi mumkin boʻlgan shaxslar bilan suhbatlashib ulardan oʻzi uchun kerakli bolgan maʼlumotlarni aniqlashga harakat qildi. 1940 yilda nemis qoʻshinlari Parijni egallab olishgandan soʻng, u Fransiyaning janubida joylashgan Vichiga ketishga majbur boʻladi. Sababi u Parijda qoladigan boʻlsa uni ayanchli qismat kutayotganligini sezardi shuning uchun u Parijda qolishdan koʻra ketishni maqul koʻrgan. U yerda raqosa niqobi ostida kapitan Jak Abtey bilan yashirinchı uchrashib oʻzi toʻplagan maʼlumotlardan uni habardor qilib turgan. 1941 yillning boshlarida kapitan Jak Abtey va Jozefina Beyker birgalikda oʻsha davrda Fransiyaning mustamlakasi boʻlgan Shimoliy Afrika hududiga koʻchib oʻtishdi. Ular u yerdan turib nemislar haqidagi hujjatlarni, fotosuratlar va qoʻlyozmalarni Lissabondagi general Sharl de Goll boshchiligidagi Free French (Ozod Fransiya) harakati guruhida ishlaydigan agentlarga yuboradi. Beyker Faxriy legion va Krua de Gerr (urush xochi) ordenlari bilan urush davridagi xizmatlari uchun hayoti davomida fransuzlar tomonidan taqdirlangan. 2021-yil noyabr oyida u fransuz panteoniga kiritilgan birinchi qora tanli ayolga aylandi. Fransuzlarning nemislar ustidan gʻalaba qozonishga va oʻz mustaqilligini qayta tiklashga oʻz hissasini qoʻshdi va shu tariqa fransuz tarixining kichik qismiga aylandi desak mubolagʻa boʻlmaydi¹. Huddi shunday ozodligi uchun mardonavor kurashgan yana bir jasur ayollardan biri bu – Nur Inoyat Xon edi. U Hindistondagi qirollik avlodidan boʻlib, zoʻravonlikka qarshi turadigan, jiddiy, muloyim, musiqaga mehr qoʻygan inson edi. Nurxonning bolaligi Angliya va Fransiya da oʻtgan baʼlki shunga boʻlsas kerak u musiqa va bolalar uchun ertaklar yozishni yoqtirgan va u bu ish bilan shugʻullangan. 1940-yilda Germaniya Fransiyanı bosib olganida, u amerikalik beva onasi bilan birga Londonga koʻchib oʻtadi. U yerda esa simsiz aloqa – yaʼni radiosignallarni uzatish boʻyicha oʻz izlanishlarini olib borib,

¹ <https://www.nationalgeographic.com/premium/article/women-female-spies-world-war-ii>

operator bo'lib hizmat qila boshlaydi. Fransuz tilini yaxshi bilganligi va texnikani ta'mirlashni bilganligi sababli, u britan razvedkasi – Maxsus Operatsiyalar Boshqarmasi (SOE)ga tanlab olinadi. Bu tashkilotni o'z davrida bosh vazir Uinston Cherchill boshqarilgan. Uning asosiy maqsadi– Yevropaning ichki dushman bo'lgan Germaniyaning ta'siridan qutqarish va Yevropaning ozodligi uchun har qanday keskin chora va qattiq urush choralari qo'llash edi. Nurxon razvedka topshirig'i bilan Fransiya yuboriladi. U yerga yashirincha joylashib olib radiosignallar orqali Londonga maxfiy xabarlar yuboradi. 1943-yil sentabrga kelib Parijda u Londonga ma'lumot yuborayotgan agentlarning ko'pi halok bo'ladi. Mazkur yilda Parijdagi u so'ngi britan agenti edi. Ammo, uni tanigan va qilayotgan ishlaridan xabardor bo'lgan insonlar unga xiyonat qiladi. Nurxon 1943-yil oktyabrda hibsga olinadi va uni shavqatsizlarcha qiynaydi, ammo azob uqubatlarga qaramay u o'z vataniga sadoqat bilan sodiq qoladi va davlatga oid maxfiy ma'lumotlarning birontasini ham oshkor qilmaydi. Oxiri 1944-yil sentabrda Germaniyadagi Dachau kontslagerida qatl etiladi. Jallod uning boshiga qurol tiragach, Nur Inoyat Xonning so'ngi so'zi "Ozodlik!" bo'lgan².

Jasur ayollardan biri — Jozefina Gerrero hayoti ham Ikkinchi Jahon urushining mudhish va sinovli yillariga to'g'ri keladi. U 1942-yilda, Yaponlar Filippinni bosib olish arafasida, Jozefina og'ir kasallik – Hansen (ya'ni moxov) kasalligiga chalinadi. Kasalligi tufayli eri uni tashlab ketadi, hatto o'z farzandi bilan ham aloqasini uzishga majbur bo'ladi. Mazkur davirda moxov kasalligiga chalingan odamlar jamiyatdan chetlashtirilgan, ularni uyidan haydab, kasalxonaga yuborishgan. Bunday odamlarni hatto o'z yaqinlari bilan ham uchrashishini taqiqlab qo'yishgan va butunlay yolg'iz qolishga majbur bo'lgan. Urush davrida tibbiy yordam ham deyarli yo'q bo'lganligi sababli, dori-darmon toppish tobora qiyinlashgan. Ahvoli og'irlashgan Jozefina hayotini xavfga qo'yib bo'lsa-da, Vatanining ozodligi uchun kurashishga qaror qiladi. U kasalligidan foydalanib Filippinda josuslik qilgan. Uning kasalligi sababli yaponlar undan cho'chib, hatto yaqiniga ham bormagan. Bu Jozefina erkin harakatlanishi hamda ko'plab ma'lumotlar to'plashga imkon bergan. U mahfiy ma'lumotlarni partizanlarga yetkazib turgan. Asosan xabarlarini sochlari orasiga, paypoqlariga yashirib olib o'tgan. Chunki barcha aloqa vositalari yaponlar nazoratida bo'lgani uchun, xabarlar aynan mana shunday jasur josuslar orqali yetkazilgan. Jozefinaning zimasiga ya'nada og'ir va murakkab vazifa yuklanadi. Amerika qo'shinlar Filippini ozod qilish uchun yetib kelishiga qadar Jozefina yaponlarning mudofaa istehkomlari, qurol omborlari joylashgan joylarni xaritasini tuzishi zarur edi. 1944-yilda uning chizgan xaritasi asosida amerikaliklar Manila bandargohini yaponlardan ozod qiladi va muhim g'alabaga erishadi. Urush tugagach Jozefinani yana kasallar uchun mo'ljallangan

² https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Noor_Inayat_Khan

yopiq shifoxonaga joylashtiradi. Garchi mardonavor ish qilgan bo'lada u juda og'ir sharoitda yashagan. 1948-yilga kelib u bu ahvol haqida ochiq bayonot beradi. Shundan keyin Jozefina davolanish uchun AQShga yuboriladi. U AQSh vizasini olgan birinchi Hansen kasalligiga chalingan xorijlik bo'ladi va keyinchalik AQSh fuqaroligini ham qo'lga kiritadi³.

Agnes Meyyer Driskoll 20-asr boshlarida Amerikadagi eng zo'r kod yechuvchi ayollardan biri bo'lgan. Uni hatto "Dengiz kuchlari kodlarining malikasi" deb ham atashgan. U 1916-yilda Ohayo shtatidagi universitetni bitirgan. Agnes matematika, musiqa, fizika va chet tillarini yaxshi bilar edi. Ikkinchi jahon urushi vaqtida u AQSh harbiy dengiz kuchlarida ishlagan va "yeoman" degan unvonni olgan. Bu unvon o'sha paytda ayollar erisha oladigan eng yuqori lavozimlardan biri edi. Agnes urushdan keyin ham harbiylar bilan ishlashda davom etgan. U turli kodlar, yashirin xabarlar va signallarni yaratish va ularni yechish ustida ishlagan. Urush paytida Driskoll Yaponiyaning dengiz kuchlari ishlatadigan juda murakkab va maxfiy "JN-25" nomli kodini yechishga muvaffaq bo'ladi. Bu juda katta yutuq edi, chunki bu kod orqali yaponlarning harbiy rejalarini oldindan bilish imkoni bo'lgan. Unga maxfiy nom sifatida "Madam X" deyishgan. Agnes 1949-yilgacha AQSh harbiy dengiz kuchlarining eng muhim kriptanalitigi hisoblangan. Uning ishi shunchalik muhim ediki, 2000-yilda u AQSh Milliy xavfsizlik agentligining faxriylar zaliga kiritilgan⁴.

Xulosa

Ikkinchi jahon urushi birgina front chizig'ida emas, balki maxfiy razvedka xizmatlarida ham mardonavor kurashlar maydoni bo'lgan. Bu mudhish urushda o'z xalqining ozodligi va tinchligi uchun hayotini xavf ostiga qo'ygan ko'plab jasur ayollar tarix sahnasiga chiqdi. Jozefina Beyker, Nur Inoyat Xon, Jozefina Gerrero va Agnes Meyer Driskoll kabi ayollar o'z aql-zakovati, qat'iyati va fidoyiligi bilan urush taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatganini bevosita ko'rishimiz mumkin. Ular razvedka xizmatlari, kod yechish, dushman harakatlarini fosh etish va qarshilik harakati kabi sohalarda ulkan yutuqlarga erishgan va shu orqali front orti jangida g'alabaga katta hissa qo'shgan. Ushbu ayollarning qilgan bu ishlaridan shuni anglab yetishimiz mumkinki jasorat va vatanparvarlik tuyg'ulari faqat erkaklarga xos emas balki ayollar ham o'z vaqtida jasorat ko'rsata olishgan. Ular ko'plab xavf-xatarlarga, jismoniy va ruhiy azoblarga qaramay, o'z oldiga qo'ygan vazifasini ortga chekinmasdan ado etgan. Ularning faoliyati nafaqat urush strategiyasida, balki ayollarning jamiyatdagi o'rnini qayta belgilashda ham muhim burilish nuqtasiga aylandi. Shunday qilib, Ikkinchi jahon urushi tarixida ayollar nafaqat qurbon sifatida emas, balki faol ishtirokchi va g'alabaga yetaklovchi kuch sifatida ham abadiy nom qoldirdilar.

³ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Josefina_Guerrero

⁴ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Agnes_Meyer_Driscoll

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. <https://www.nationalgeographic.com/premium/article/women-female-spies-world-war-ii>
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Noor_Inayat_Khan
3. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Josefina_Guerrero
4. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Agnes_Meyer_Driscoll
5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15478673>
6. <https://webofjournals.com/index.php/3/article/view/4656/4611>
7. <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/1/article/view/2613/1807>

